Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 811.112.2

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

O‘ZBEK VA NEMIS OILAVIY DISKURSIDA O‘LIM EVFEMIZMLARINING KONSEPTUAL VA LINGVOPRAGMATIK MODELLARI

Qobiljon Shuhrat o‘g‘li Kaxarov*

Farg‘ona davlat universiteti

✉ qobili7000@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda o‘zbek va nemis oilaviy diskursida o‘lim konseptining bevosita nominatsiyasidan qochish hamda uni evfemistik vositalar orqali ifodalash strategiyalari qiyosiy-lingvomadaniy va pragmatik nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Tahlilda o‘zbek tilidagi vafot etdi, olamdan o‘tdi, dunyodan ko‘z yumdi, omonatini topshirdi, bandalikni bajo keltirdi kabi birliklar hamda nemis tilidagi verstorben sein, von uns gegangen sein, friedlich eingeschlafen sein, seine letzte Reise antreten singari ifodalar asos qilib olinadi. Qiyosiy tahlil natijasida har ikki lingvomadaniyatda o‘limni yumshatib ifodalash universal kommunikativ ehtiyoj ekanligi, biroq uning pragmatik motivatsiyasi va madaniy semantikasi bir xil emasligi ko‘rsatiladi. O‘zbek oilaviy diskursida evfemizatsiya diniy-axloqiy kod, marhumga hurmat va jamoaviy hamdardlik bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa, nemis diskursida suhbatdoshning psixologik komfortini saqlash, kommunikativ ehtiyotkorlik hamda individual hissiy tajribani verbalizatsiya qilish funksiyalari ustuvor ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar

nutqiy etiket, oilaviy diskurs, tabu, evfemizm, o‘lim konsepti, motam nutqi, lingvokulturologiya, lingvopragmatika, madaniy skript, kommunikativ strategiya.

DOI: 10.5281/zenodo.23278562

Til insonning faqat borliq haqidagi bilimlarini nomlash vositasi emas, balki jamiyat tomonidan “aytish mumkin”, “aytish nomaqbul” yoki “boshqacha aytilishi lozim” deb baholanadigan hodisalarni ham tartibga soluvchi madaniy mexanizmdir. Shu ma’noda tabu va evfemizmlar til, madaniyat va ijtimoiy xulq-atvor o‘rtasidagi munosabatni eng aniq namoyon etuvchi birliklar qatoriga kiradi.

Ayniqsa, o‘lim inson hayotidagi universal hodisa bo‘lishiga qaramay, uning verbalizatsiyasi universallikdan ko‘ra madaniy spetsifiklikni ko‘proq namoyon etadi. Inson biologik jihatdan bir xil hodisani boshdan kechiradi, biroq turli lingvomadaniyatlar bu hodisani turlicha “tilga kiritadi”. Demak, o‘limga oid evfemizmlarni o‘rganish faqat leksik almashtirish mexanizmini aniqlash emas, balki muayyan xalqning hayot, o‘lim, inson, ruh, xotira va hamdardlik haqidagi madaniy tasavvurlarini rekonstruksiya qilish imkonini ham beradi.

O‘limga oid evfemizmlar turli tillar materialida leksik-semantik, stilistik va pragmatik jihatdan o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning o‘zbek va nemis oilaviy diskursidagi kommunikativ funksiyalari, ayniqsa bevosita nominatsiya bilan evfemistik nominatsiya o‘rtasidagi tanlovni belgilovchi lingvomadaniy omillar qiyosiy aspektda yetarlicha yoritilmagan. Shu jihatdan o‘lim evfemizmlarini ikki lingvomadaniyat doirasida qiyoslash ularning universal va milliy-spetsifik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi o‘zbek va nemis oilaviy hamda motam diskursida o‘limni evfemistik ifodalashning lingvistik vositalarini aniqlash, ularning semantik-pragmatik funksiyalarini qiyoslash va mazkur birliklarda aks etadigan madaniy kodlarni ochib berishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi o‘zbek va nemis

o‘lim diskursidagi evfemistik birliklarni konseptual metafora, kommunikativ strategiya va madaniy skriptlarning o‘zaro ta’siri asosida qiyosiy tavsiflash, shuningdek, umumiy va assimetrik metaforik modellarni aniqlashda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotda qiyosiy, lingvokulturologik, lingvopragmatik, leksik-semantik hamda diskursiv tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida o‘zbek va nemis tillaridagi oilaviy muloqot, motam nutqi, marhum haqida xabar berish hamda ta’ziya bildirish bilan bog‘liq kommunikativ vaziyatlarda qo‘llanadigan evfemistik birliklar tanlandi. Mazkur tadqiqotda o‘lim diskursi deganda o‘zbek va nemis oilaviy diskursining o‘lim, motam, marhum haqida xabar berish va ta’ziya bildirish bilan bog‘liq kommunikativ segmentlari tushuniladi. Tahlilda birliklarning denotativ ma’nosi, konnotativ yuklamasi, metaforik modeli va pragmatik funksiyasi asosiy mezon sifatida olindi.

O‘lim bilan bog‘liq kommunikativ vaziyatlarda so‘zlovchi oldida ikki vazifa turadi: faktni yetkazish va ayni paytda adresatning hissiy holatiga zarar yetkazmaslik. Shu sababli o‘lmoq yoki nemis tilidagi sterben leksemalari semantik jihatdan neytral bo‘lishiga qaramay, muayyan kommunikativ vaziyatda ular haddan tashqari to‘g‘ri, keskin yoki hissiy jihatdan og‘ir qabul qilinishi mumkin.

Natijada til bevosita nominatsiya o‘rniga ikkilamchi nominatsiyaga murojaat qiladi. Bunda evfemizm referentni o‘zgartirmaydi: biologik hodisa o‘sha-o‘sha qoladi, lekin so‘zlovchining unga munosabati va adresatga ta’sir qilish usuli o‘zgaradi. Nutqiy aktlar nazariyasi nuqtayi nazaridan bunday birliklarning kommunikativ qiymati faqat ularning denotativ mazmuni bilan emas, balki muayyan vaziyatda bajaradigan illokutiv va perlokutiv vazifalari bilan ham belgilanadi (Austin, 1962).

O‘zbek oilaviy diskursida:

o‘ldi → vafot etdi → olamdan o‘tdi → dunyodan ko‘z yumdi → omonatini topshirdi kabi qatorni kuzatish mumkin.

Mazkur qatorda denotativ mazmun deyarli o‘zgarmagan holda konnotativ yuklama bosqichma-bosqich kuchayadi. Vafot etdi uslubiy jihatdan hurmat ifodalasa, olamdan o‘tdi o‘limni bir makondan ikkinchi makonga o‘tish sifatida konseptuallashtiradi. Omonatini topshirdi birligi esa oddiy yumshatishdan ham chuqurroq semantik tuzilishga ega: unda inson hayotining vaqtinchaligi hamda hayot insonga berilgan “omonat” sifatida talqin qilinadigan diniy-madaniy model mavjud. Mazkur birlikni konseptual jihatdan O‘LIM – OMONATNI QAYTARISH modeli asosida izohlash mumkin. Bunda inson hayoti shaxsga mutlaq tegishli hodisa sifatida emas, balki unga vaqtincha berilgan ne’mat sifatida konseptuallashtiriladi. Shu bois omonatini topshirdi birligi nafaqat o‘lim faktini yumshatadi, balki o‘zbek lingvomadaniyatiga xos diniy-aksiologik dunyoqarashni ham verbal shaklda namoyon qiladi. Mazkur model o‘zbek tilidagi o‘limga oid boshqa diniy-konnotativ birliklar bilan birgalikda qaralganda yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, bandalikni bajo keltirdi singari birliklarda ham o‘lim bevosita biologik yakun sifatida emas, balki diniy-aksiologik dunyoqarash doirasida konseptuallashtiriladi.

Shunday qilib, o‘zbek diskursida evfemizm ayrim holatlarda nominativ almashtiruvchi vositadan madaniy konseptni tashuvchi birlik darajasiga ko‘tariladi.

Nemis oilaviy va motam diskursida ham bevosita sterben yoki tot sein konstruksiyalari bilan bir qatorda evfemistik birliklar faol qo‘llaniladi:

verstorben sein – vafot etgan bo‘lmoq;

von uns gegangen sein – bizni tark etgan bo‘lmoq;

friedlich eingeschlafen sein – osoyishta uyquga ketgan bo‘lmoq;

seine letzte Reise antreten – so‘nggi safariga otlanmoq.

Bu birliklarda ham o‘lim tushunchasi boshqa konseptual sohalar orqali verbalizatsiya qilinadi. Von uns gegangen konstruksiyasida O‘LIM – KETISH, eingeschlafen birligida O‘LIM – UYQU, letzte Reise metaforasida esa O‘LIM – SAFAR konseptual modellari yuzaga keladi.

Qiyosiy tahlil har ikki tilda o‘limni to‘g‘ridan-to‘g‘ri nominatsiya qilishdan qochishda bir qator umumiy metaforik modellar mavjudligini ko‘rsatadi. Jumladan, O‘LIM – KETISH, O‘LIM – UYQU va O‘LIM – SAFAR modellari o‘zbek va nemis diskursida turli leksik shakllarda voqelanadi. Biroq O‘LIM – OMONATNI QAYTARISH kabi diniy-aksiologik model o‘zbek lingvomadaniyatida nisbatan yaqqol namoyon bo‘lib, uning

nemis tilidagi to‘liq strukturaviy ekvivalenti tahlil qilingan materiallar doirasida kuzatilmadi.

Biroq nemis oilaviy muloqotida bevosita Er ist gestorben shaklining qo‘llanishi kommunikativ jihatdan qat’iy cheklanmagan. Uning ishlatilishi vaziyat, adresatning yoshi, suhbatning maqsadi va hissiy masofa bilan belgilanadi. Bu jihatdan nemis tilida evfemizatsiya ko‘proq kontekstual tanlov sifatida namoyon bo‘ladi.

Ayniqsa bolalar bilan o‘lim haqida muloqotda eingeschlafen va von uns gegangen kabi evfemistik ifodalar kommunikativ ehtiyotkorlik vositasi sifatida qo‘llanishi mumkin.

O‘zbek va nemis materiallarini qiyoslash o‘lim evfemizmlarida bir qator umumiy konseptual modellar mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur umumiy metaforik modellarga qaramay, ularning pragmatik motivatsiyasi va madaniy yuklamasi ikki lingvomadaniyatda bir xil emas.

O‘zbek nutqiy madaniyatida o‘limni yumshatib ifodalash, avvalo, marhumga hurmat, diniy-axloqiy me’yorlarga rioya qilish va jamoaviy hamdardlikni namoyon etish bilan bog‘liq. Shu sababli o‘ldi shakli grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa-da, yaqin inson yoki hurmat qilinadigan shaxs haqida gap ketganda kommunikativ jihatdan nomaqbul tus olishi mumkin.

Masalan, Otasi o‘ldi va Otasi vafot etdi jumlalari bir xil propozitsional mazmunni ifodalasa-da, ularning pragmatik va etik qiymati bir xil emas. Ikkinchi variant adresatga va marhumga nisbatan hurmatni kodlaydi. Demak, nutqiy etiket nuqtayi nazaridan evfemizm bu yerda shunchaki sinonimik variant emas, balki kommunikativ munosabat ko‘rsatkichi vazifasini bajaradi.

Nemis diskursida esa: Sein Vater ist gestorben ifodasi ko‘plab vaziyatlarda pragmatik jihatdan maqbuldir. Sein Vater ist von uns gegangen yoki friedlich eingeschlafen shakllari qo‘llanganda esa denotativ mazmun saqlangan holda uning hissiy-pragmatik talqini o‘zgaradi.

Shu asosda o‘zbek va nemis o‘lim diskursidagi asosiy farqni quyidagicha formulalash mumkin:

Tahlil qilingan materiallar doirasida o‘zbek diskursida evfemizatsiyaning madaniy-etik normativligi, nemis diskursida esa uning vaziyatga bog‘liq pragmatik variativligi nisbatan kuchliroq namoyon bo‘ladi.

Bu farqni mutlaq oppozitsiya sifatida emas, balki har ikki madaniyatdagi dominant tendensiya sifatida tushunish maqsadga muvofiq.

Tahlillar evfemizmga faqat qo‘pol yoki noqulay leksemani “chiroyliroq” leksema bilan almashtirish sifatida qarash yetarli emasligini ko‘rsatadi.

O‘lim diskursida evfemizm kamida to‘rt funksiyani bajaradi.

Birinchidan, nominativ-yumshatuvchi funksiya namoyon bo‘ladi. Bevosita nominatsiyaning hissiy zarbasi kamaytiriladi.

Ikkinchidan, interpersonal-pragmatik funksiya yuzaga chiqadi. So‘zlovchi adresatning hissiy holatini hisobga oladi, unga hamdardlik va hurmat bildiradi.

Uchinchidan, lingvomadaniy funksiya namoyon bo‘ladi. Til birligi ortida jamiyatning o‘limga munosabati, diniy tasavvuri, inson hayotini qadrlash shakli va marhum xotirasiga munosabati kodlanadi.

To‘rtinchidan, evfemizm madaniy-identifikatsion funksiyani ham bajaradi. Muayyan birlikni tanlash orqali so‘zlovchi nafaqat o‘lim hodisasiga munosabatini, balki o‘zi mansub bo‘lgan madaniy, diniy va aksiologik tizimni ham bilvosita namoyon qiladi. Masalan, omonatini topshirdi yoki bandalikni bajo keltirdi kabi birliklarda axborot berish funksiyasi bilan bir qatorda muayyan diniy-madaniy dunyoqarash ham lisoniy jihatdan namoyon bo‘ladi.

Shuning uchun omonatini topshirdi yoki seine letzte Reise antreten kabi birliklarning mazmunini faqat lug‘aviy tarjima bilan to‘liq anglab bo‘lmaydi. Ularni tushunish uchun mazkur birlikni yuzaga keltirgan madaniy skriptni ham hisobga olish zarur. Mazkur holat A. Wierzbickaning madaniy skriptlar nazariyasi nuqtayi nazaridan muayyan jamiyatda “nima haqida qanday gapirish mumkin” degan kollektiv kommunikativ bilimning lisoniy ifodasi sifatida talqin qilinishi mumkin. Shuningdek, G. Leechning pragmatik muloyimlik tamoyillari doirasida o‘lim evfemizmlari adresatning hissiy noqulayligini kamaytirishga va kommunikativ munosabatni muvozanatda saqlashga xizmat qiluvchi strategiya sifatida qaraladi.

O‘zbek va nemis oilaviy diskursida o‘limni evfemistik verbalizatsiya qilish tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

O‘limni to‘g‘ridan-to‘g‘ri nomlamaslik har ikki lingvomadaniyatga xos universal kommunikativ hodisa bo‘lsa-da, uning realizatsiyasi milliy-madaniy me’yorlarga bog‘liq.

O‘zbek diskursida vafot etdi, olamdan o‘tdi, omonatini topshirdi kabi birliklar hurmat, diniy e’tiqod, jamoaviy hamdardlik va marhumning ijtimoiy maqomini e’tirof etish bilan chambarchas bog‘langan. Shu sababli evfemizatsiya nutqiy etiketning normativ komponentiga yaqinlashadi.

Nemis diskursidagi verstorben, von uns gegangen, friedlich eingeschlafen, letzte Reise kabi birliklar esa o‘lim faktini hissiy jihatdan yumshatish, suhbatdoshning psixologik noqulayligini kamaytirish va individual qayg‘uni verbal ifodalashga xizmat qiladi. Demak, o‘zbek va nemis tillaridagi o‘lim evfemizmlarining umumiyligi ularning yumshatuvchi va hissiy-kompensator funksiyasida namoyon bo‘lsa, milliy-spetsifiklik evfemistik birliklarni tanlash motivatsiyasi va ularning ortida turgan madaniy konseptlarda yuzaga chiqadi. Ayniqsa, o‘zbek diskursidagi diniy-aksiologik modellar bilan nemis diskursidagi kontekstual-pragmatik tanlovlar o‘rtasidagi farq ikki lingvomadaniyatning o‘limni verbal konseptuallashtirishidagi muhim xususiyatlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, evfemizm o‘limni yashirish vositasi emas, balki madaniyatning o‘lim haqida qanday gapirishni belgilovchi lingvistik mexanizmidir. Bir xil biologik hodisaning o‘zbek va nemis tillarida turlicha lingvistik va pragmatik konseptuallashtirilishi tilning voqelikni shunchaki nomlamasligi, balki uni madaniy jihatdan talqin qilishini yana bir bor ko‘rsatadi.

Mazkur jihat tabu va evfemizmlarni faqat leksik-semantik kategoriya doirasida emas, balki nutqiy etiket, lingvopragmatika, madaniy skript va konseptualizatsiya nazariyalari kesishmasida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962.

[2] Leech G. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983.

[3] Leech G. The Pragmatics of Politeness. – Oxford: Oxford University Press, 2014.

[4] Wierzbicka A. Russian Cultural Scripts: The Theory of Cultural Scripts and Its Applications // Ethos. – 2002. – Vol. 30, No. 4. – P. 401-432.

[5] Ismoilova H., Xatamova Z., Burxanova D. Classification and Types of Euphemisms // Journal INX – A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. – 2020. – Vol. 6. – P. 53-57.

[6] Khairullina R., Fatkullina F., So Q., Lin Z. Taboo as a Linguistic and Cultural Phenomenon // European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. – 2020.

[7] Samiyeva S. Taboo and Euphemism in Uzbek and Tajik Languages // World Bulletin of Social Sciences. – 2023. – №27. – P. 64-68.